

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)


2019 yil yanvar-may

Bugungi kunda xizmatlar sohasi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4114,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish surati 111,8 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-may oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 753,3 mlrd. so'mga oshdi.

Farg'ona viloyatida hizmat ko'rsatish faoliyati, 2019 yil yanvar-may




**2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab
chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Xizmatlar - jami	4114,1	111,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	247,5	112,3
moliyaviy xizmatlar	559,2	165,8
transport xizmatlari	880,0	103,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	814,1	100,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	101,6	101,2
savdo xizmatlari	1316,9	106,6
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	132,0	103,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	182,8	119,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	83,1	103,1
ijara xizmatlari	115,7	101,0
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	127,3	101,4
shaxsiy xizmatlar	223,6	103,6
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	37,7	137,3
boshqa xizmatlar	106,7	101,1


Eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (165,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (137,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (119,1 %), savdo sohasi (106,6 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-may oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-may oylarida eng yuqori hajm savdo xizmatlarda 1316,9 mlrd. so'm, transport xizmatlarda 880,0 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlarda 559,2 mlrd. so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarda 247,5 mlrd. so'mni tashkil etganini ko'rish mumkin.

**2019 yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi
(jami hajmga nisbatan, %)**




Xizmatlar tarkibida eng katta ulushlarni savdo xizmatlari (32,0 %), transport xizmatlari (21,4 %), moliyaviy xizmatlar (13,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,0 %), shaxsiy xizmatlar (5,4 %) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,5 %), tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi Farg'ona viloyatida 101,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, yashash bo'yicha xizmatlar 9,8 mlrd. so'm, oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 91,8 mlrd. so'mni tashkil etgan.

2019 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan transport xizmatlari tarkibi, foizda



2019 yil yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi Farg'ona viloyatida 880,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, avtotransport xizmati 814,1 mlrd. so'mni, jami transport xizmatlarining 92,5 % tashkil etadi.

2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish surati, %



Xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari moliyaviy xizmatlar (165,8 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (137,3 %), ta'lif sohasidagi xizmatlar (119,1 %), hamda savdo sohasidagi xizmatlar (106,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.


**2019 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish surati, %
Farg'ona viloyati	4114,1	111,8
Farg'ona sh.	1 893,3	117,7
Qo'qon sh.	524,3	109,6
Quvasoy sh.	64,1	107,5
Marg'ilon sh.	403,0	106,2
Oltiariq t.	114,1	106,6
Qo'shtepa t.	65,1	105,6
Bag'dod t.	86,7	105,9
Buvayda t.	82,0	106,3
Beshariq t.	86,6	106,3
Quva t.	102,7	108,8
Uchko'prik t.	113,3	105,8
Rishton t.	77,1	102,2
So'x t.	32,4	104,8
Toshloq t.	88,4	108,4
O'zbekiston t.	88,9	108,0
Farg'ona t.	117,4	108,3
Dang'ara t.	82,8	106,5
Furqat t.	40,3	104,0

Yozyovon t.	51,6	107,4
-------------	------	-------

2019 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish suratlari Farg'ona (117,7 %), Qo'qon shaharlariда (109,6 %) hamda Quva (108,8 %), Toshloq (108,4 %), Farg'ona (108,3 %) va O'zbekiston (108,0 %), qayd etildi.

**2019 yil yanvar-may oylarida Farg'ona viloyatida jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi
(jami hajmga nisbatan %)**



2019 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan eng yuqori ulushni Farg'ona (46,0 %), Qo'qon (12,7 %) va Marg'ilon (9,8 %), shaharlarda hamda Farg'ona (2,9 %), Oltiariq tumanlarida (2,8 %) qayd etildi.

